

SPIRTLI ICHIMLIKLARNI ANGLATUVCHI EVFEMIK IFODALAR (UMAR XAYYOM VA ALISHER NAVOIY IJODI ASOSIDA)

Fayzullayeva Dildora Bahrilla qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: S.Sh.Pardayev

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakillari Umar Xayyom va Alisher Navoiy ruboiylari va g'azallarida spirtli ichimliklarni anglatuvchi evfemik ifodalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Evfemizm, Reformatskiy, tabu, Umar Xayyom, jom, soqiy, may, sharob, boda, Alisher Navoiy, „Ashqarat...“

АННОТАЦИЯ

В статье говорится об эвфемизме названий спиртных напитков в рубаях и газелях Умара Хайёма и Алишера Навои, видных представителей узбекской классической литературы.

Ключевые слова: Эвфемизм, Реформатский, табу, , Умар Хайям, варенье, соки, май, вино, бода, Алишер Навои, «Ашкарат...»

ABSTRACT

The article talks about the euphemism of the names of alcoholic drinks in the rubai and ghazals of Umar Khayyom and Alisher Navoi, prominent representatives of Uzbek classical literature.

Key words: Euphemism, Reformatsky, taboo, Umar Khayyam, jam, soqi, may, wine, boda, Alisher Navoi, "Ashqarat..."

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy "Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar" deya ta'rif beradi. A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: "Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi,

phemi — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash¹."

¹ X.Qodirova "O'zbek tilida evfemizm va desfemizm".-T.:2022,5-bet

O'zbek mumtoz adabiyotining vakillaridan beri Umar Xayyom ruboiylarida spirtli ichimliklarni ifodalovchi may, sharob kabi so'zlardan keng foydalanilgan. Umar Xayyom o'zbek mumtoz adabiyotida „May kuychisi“ deb ham ta'riflanadi.

**Do'stlar, inoqlikni qilsangiz bunyod,
Tez-tez diydor ko'rib, o'zni aylang shod,
Soqiy toza mayni suzganda, aylang
Men bechorani ham duo birla yod.**

Ushbu ruboiyda Umar Xayyom do'stlar bilan kurishib may ichganda albatta shoirni ham duo bilan esga olishini ta'kidlab o'tadi. Ruboiyda **may** so'zi „spirtli ichimlik“ni, **soqiy** so'zi esa „mayni quyuvchi kishi“ ma'nosini ifodalab kelgan.

**Bir qo'lda Qur'onu bittasida jom,
Ba'zida halolmiz, ba'zida harom,
Feruza gumbazli osmon ostida
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom**

Shoir bu ruboiyda inson qo'lida Qur'on ushlab nomoz o'qisa ham, lekin jomni ya'ni spirtli ichimlikni ham qo'lidan qo'ymasligini aytadi. Inson Qur'on o'qib halol bo'lsa, ba'zida harom bo'lgan ishlarni ham qiladi. Bu ruboiyda Umar Xayyom **jom** so'zini „spirtli ichimlik“ ma'nosida qo'llagan. **Jom** so'zi ko'p o'rinlarda "ichimlik quyiladigan idish" ma'nosini ifodalab keladi.

**May ich, ochu to'qlik g'ami dildan ketadi,
Yetmish ikki millat qayg'usi tark etadi.
Maydan sira parhez etma-bir kimyodir ul,
Bir qatrasidan ming dardishta naf etadi!**

Umar Xayyom ushbu ruboiyda may ichsa insondan barcha g'amlar, hatto yetmish ikki millatning qayg'usi ketishini, mayni bir kimyo sifatida ta'riflab undan parhez qilmaslikni ta'kidlaydi. Shoir bu o'rinda ham mayni yuqoridagi kabi spirtli ichimlik ma'nodasida qo'llab evfemizmni hosil qiladi.

**May ichsang, oqilu dono bilan ich,
Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich.
Oz-oz ich, goh-goh ich ham yashirin ich,
Ezma, rasvo bo'lma, hayo bilan ich.**

Ruboiyda may ichsa ham oqil va dono yoki gul yuzli zebo bilan ichish kerakligini, may ichganda oz-ozdan ba'zan esa yashirin holda ichish lozimligini uqtiradi. May ichganda hayo bilan ozroq ichish kerakligi, aks holda hammani oldida inson rasvo bo'lishini aytib o'tadi. **May** so'zi bu o'rinda evfemizmni hosil qilgan.

**May ichsa gado ham sulton bo'ladi,
Tulki ichsa, sheri g'oron bo'ladi,
Yosh ichsa keksalik sharafin quchar,**

Keksa ichsa yoshu chaqqon bo'radi.

Bu ruboiyda ham **may** so'zi evfemizm vositasida qo'llanilgan. Mayni gado ichsa sulton, tulki ichsa she'r, yosh ichsa keksadek, keksa ichsa yoshdek chaqqon bo'lishini aytib o'tadi.

**Qo'limizda bo'lsa oq bug'doy noni,
Bir kosa sharob-u, qo'ying bir soni,
Dilbar bilan mayli vayronadamiz,
Bu ayshni topolmas jahon sultoni.**

Shoir bu ruboiyda esa evfemizm ma'nosida **sharob** so'zini oladi. Sharob spirtli ichimlikning bir turidir. Umar Xayyom ruboiyda oq bug'doy noni, bir kosa sharob va qo'ying bir soni bo'lishini xohlaydi. Bu ayshni hatto jahon sultoni ham topolmasligini ta'kidlab o'tadi. Umar Xayyomning juda ko'p ruboiylari mavzusi may haqida. Shoirga "may kuychisi" degan nom bejiz berilmagan².

May, jom, tarso, sharob, boda so'zlari hamma o'rinda spirtli ichimlik ma'nosini ifodalab kelmaydi. Masalan, Alisher Navoiyning „Kecha kelgumdur debon..“ deb nomlanuvchi g'azalining bir bayti xuddi shu fikrni ta'kidlab kelgan. „**Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngil uyini, ne uchunkim boda kirgan uyga qayg'u kelmadi**“, degan maqta'ni eshitganda, shoirning lirik qahramoni yorini kutaverib qiynalganidan, uyiga kirib alamdand ichib olibdi-da, deb o'ylaymiz. Aslida bayt ma'nosi boshqa fikrni ifodalab keladi. Bunday g'azallarda ham boda, sharob, may so'zlari majoziy ma'noda — muhabbat shavqini bildirib kelishini esdan chiqarmaslik kerak. Bundan tashqari, Navoiy bodani «ko'ngul uyini xurram etuvchi» narsa deganda, yorni ko'nglida saqlash, uning yodi bilan yashashni ta'kidlagan.

Navoiyning ko'plab ruboiylarida spirtli ichimlik ma'nosida keluvchi evfemik birliklar qo'llanilgan. Masalan,

**May ichmas esang, mastni malomat qilma,
Giybat torini to'qishni odat qilma.
Bilsang, seni(ng) qilmishlaring bundan battar,
Bas, ichmaganingni bizga ibrat qilma!**

Yuqoridagi ruboiyda **may** so'zi evfemik birlik sifatida ishlatilgan. G'azal ma'nosi esa ,agarda may ichmasang mast odamni gapirma, giybat gaplarni gapirishni uzingga odat qilib olma. Agarda bilsang sening qilmishlaring mana shu mast odamning qilmishlaridan ham battardir. Shunday ekan ichmaganingdi bizga ibrat qilma so'zlari ruboiy ma'nosini tashkil etadi.

**Bir kosa sharob yuz dilu dinga arzir!
Bir qatrai may davlati Chinga arzir!
Yo`q er yuzida may kabi hech narsa — uning**

² Teletype.in sayti „Abdivahob Hurramov

Achchiqligi ming joni shiringa arzir!

Navoiyning keltirilgan ruboiysida **sharob,may** kabi ichimlik nomlari keltirilgan.Sharobning yuz dilga arzishi,bir qatra may esa butun Chin davlatiga arzishi, yer yuzida may kabi hech narsa yo‘qligi,may achchiq bo‘lsada uning achchiqligi mingta shiringa arzisi ruboiyning umumiy ma'nosini hosil qiladi³.

Bas, boda ichib, shod yurimoqlik — odat,

Forig yashamoq kufr ila dindan — toat.

Sordim: «Qalining ne?» — deya dunyo qizidan,

Ul dedi: «Qalin — shod diling har soat».

Yuqoridagi ruboiylarda **sharob, may** so‘zlari evfemik birlik sifatida ichimlik ma’nosini ifodalagan busa , ushbu ruboiyda esa **boda** so‘zi xuddi shu ma’noni ifodalab kelgan.Ruboiyda boda ichib xursand yurish odat bo‘lib qolganligi, dunyo qizidan qalin nima deb so‘rashganda,u qalin har soat diling xursand ya’ni shod bo‘lib yurishi qalin ekanligini aytadi.Navoiyda bu kabi ruboiylar ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Navoiy ruboiylaridan tashqari „**Ashqarat...**“ nomli g‘azalining ayrim baytlarida spirtli ichimlik ma’nosidagi evfemik birliklar mavjud.Misol uchun,

**Ашрақат мин акси шамсил-каъси анворул-худо,
«Ёр аксин майда кўр» деб, жомдин чиқти садо.**

**Ғайр нақшидин кўнгул жомида бўлса занги ғам,
Йўқтур, эй соқий, майи ваҳдат масаллик ғамзудо.**

**Эй, хуш ул майким, анга зарф ўлса бир синған сафол,
Жом ўлур гетийнамо, Жамшид, ани ичкан гадо.**

G‘azalda **may** so‘zi „ichimlik,orifona ma’noda muhabbat zavqining to‘lib-toshishi degan ma’noni bildiradi.**Jom** so‘zi bu o‘rinda may ichiladigan idish ma’nosini bildiradi.**Soqiy** esa yaqin do‘st, ma’shuqa, piri komil ma'nolarini ifodalab kelgan.G‘azalda jom va may so‘zlari boshdan oxirigacha bir biri bilan bog‘liq ,ammo turli talqinlarda qo‘llanilgan.Ertalab quyosh kosasidan hidoyat nurlari taraladi va jomdan,„Yorning aksini mayda ko‘r“ degan sado taraladi.Bu nur, bu may shunday ajoyibki, unga bir bo‘lak singan sopol kosa bo‘lagi ham idish bo‘loladi.O‘shanda jom butun olamni ko‘rsatadigan bo‘ladi va bu jomdan may ichgan kishi gado bo‘lsa ham o‘zini podshohday his qiladi⁴.

Demak, evfemizmlar o‘zbek tilshunosligida keng ma’noda o‘rganilib kelinmoqda.Evfemizlar nutq jarayonida muloyim so‘zlashishga yordam beradi.Bu borada ko‘plab olimlar ish olib bormoqda .O‘zbek mumtoz adabiyotida eng mashhur so‘z ustalari evfemizmdan keng foydalanadi.Bu har qanday she’r, ruboiy, g‘azallarda

³ Tafakkur.net sayti

⁴ www.kh-davron.uz kutubxonasi

nutqni chiroyli ifodalashga yordam beradi. Alisher Navoiy va Umar Xayyom kabi shoirlar evfemzlardan keng foydalangan. Yuqoridagi ruboiy va gʻazallar buning yorqin namunasidir. Qolaversa, oʻzbek tilshunoslari orasida ayni masala yuzasidan hanuz bahs-munozaralar olib borilayotganligi uning turli sohalar boʻyicha chuqurroq oʻrganilishi lozimligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. X.Qodirova "Oʻzbek tilida evfimizm va desfimizm". -T.:2022;
2. www.kh-davron kutubxonasi;
3. www.ziyouz.com kutubxonasi;
4. Tafakkur.net sayti.